

XATLARDA KO'NGIL SOG'INCHI

Axmedova Shoxista

Jizzax davlat pedagogika universiteti, PhD

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 03.11.2025

Revised: 04.11.2025

Accepted: 05.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

xatlar, ijodiy xatlar,
maktublarda ijodkor
shaxsi.

Bu maqolada Omon Matjonning Qo'ldosh Mirza va O'lmas Jamol tomonidan yozilgan xatlar shoir ijodiy laboratoriyasini o'rganish uchun ham yangi manba bo'lib xizmat qilishi aytib o'tilgan. Shuningdek, har bir xat ijod psixologiyasi muammolarini chuqurroq ochishda, adib va shoirlarimizning ijodiy ustaxonalariga oid nozik kuzatishlar olib borishda alohida manba ekanligi ta'kidlangan.

Kirish

Omon Matjon hayoti va ijodiga oid har bir arxiv hujjati omonshunoslar uchun yangicha ilmiy tahlillar yaratilishiga asos bo'ladi. Shoirdan qolgan bir parchagina qog'oz ham uning asl ixlosmandlari va tadqiqotchilari uchun muhim manba hisoblanadi. Zero, "Ijodkor qalamiga mansub turli hujjat, xat, yozishmalar va xotiralarni tahlil qilish – asarlarining yaratilish biografiyasini o'rganishda muhim omil bo'ladi"⁷⁰.

Qolaversa, biografik metod asoschilaridan biri Sent-Beyov ta'kidlaganidek: "Har qanday badiiy asar bu – so'zlayotgan shaxsdir, shaxs yoki insonni asaridan ayro tushunmaslik kerak"⁷¹. Chunki real voqelik – noestetik faktlarning badiiy umumlashtirilishi va estetik voqelikka aylantirilishi jarayonlarini, ijod psixologiyasi muammolarini chuqurroq ochishda, adib va shoirlarimizning ijodiy ustaxonalariga oid nozik kuzatishlar olib borish, yirik nazariy asarlar yaratishda bunday faktlar tengsiz qimmatga ega"⁷².

⁷⁰ Ядгарова М. Шухратнинг "Олтин зангламас" романи ижодий биографияси: тарихийлик ва бадийлик: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент: 2021. – Б. 23.

⁷¹ Сент-Бёв Ш. О. Литературные портреты. М, 1970. – С. 48.

⁷² Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 98 б.

Umuman olganda, ijodkorlarga yozilgan bu kabi maktublar ijodkor shaxsiyati, uning salohiyati, estetik va badiiy didi, o'qirmanlar fikri, ularning orzu-armon, xohish-istaklarini o'zida jamlay olgan tarixiy hujjatdir. Ayniqsa, yozuvchi-shoirlarning maktubi mantiqiyligi bilan barcha xatlardan ajralib turadi. Shuningdek, xatlar orasida bunday maktublar alohidaligi, uslubning ravonligi, fikr aniqligi bilan kaminaning ham diqqatini tortdi.

Ijodkor uy arxivida saqlanayotgan tojikistonlik, qirg'izistonlik shoirlar Qo'ldosh Mirza va O'lmas Jamol tomonidan yozilgan xatlar shoir ijodiy laboratoriyasini o'rganish uchun ham yangi manba bo'lib xizmat qiladi. Omon Matjon ustaxonasida O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlaridan (Samarqand, Buxoro, Xorazm, Sirdaryo), qolaversa, qo'shni respublikalardan (Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Qoraqalpog'iston), sobiq SSSR tarkibidagi shaharlardan, Yevropadan (Germaniya) kelgan maktublar bir qanchani tashkil qiladi.

O'zbek va tojik do'stligi kuychisi deya ta'riflangan shoir O'lmas Jamol O'sh shahridan 1977-yilda yo'llagan maktubida "Robiya Balxiy" nomli asar tarjimasi va uning taqdiri haqida so'ragan:

“Ассалому алайкум, ҳурматли иним ОМОН!

Тинч омонмисиз? Кайфиятларингиз баҳорийлигига ишончим комил.

Эркинжон, Жамолларнинг ва Сизнинг менга кўрсатган меҳрибонликларинг – вақт топиб, тақриз жўнатганларинг бошимни осмонга етказди. Айтилган самимий гапларинг – қилинадиган ишларга авандир мен учун. Раҳмат!

Саломатман, тинчман. Бекор юрганим йўқ. Шеър машқи, айрим прозаик туйғулар ифодаси бўлиб турибди. Яқинда “Робия Балхий” номли бир фожиа-драмани таржима қилиб топширдим. Унда (Рудакий ва Балхий ғазаллари) шеър борлиги учун таржимани менга топширишган эди. Ўртоқлар ўқиб, маъқул топишди. Назаримда Бухоро, Андижон театрларида ўқиб кўришмоқчи, маъқул келса, сахналаштирилар. Буёғи менга қоронғу. Маслаҳат билан, “Ирфон”да чиқиши керак бўлган тўпламга бармоқ вазнидаги нарсалардан ҳам қўшсак керак.

Дўстим, сизлардаги қўлёзма тақдири нима бўлганлигини билмоқчи эдим. Уфқда аниқ бир рўшнолик кўринадими? Малол келмаса, шуни билдирсангиз.

Менинг номимдан барча қалам заҳматкашлари – дўстларимизга салом етказгайсиз.

Эҳтиром ила, Ўлмас Жамол.

30.03.77 й.”⁷³

Keyingi qirg'izistonlik shoir, yozuvchi, tarjimon, pedagog Qo'ldosh Mirza o'z maktubida Omon Matjon ijodining yuksakligini obrazli ifodalaydi. Shoir tomonidan: “Tog'larning eng yuksak joylar – cho'qqilar. Cho'qqilar o'z-o'zidan hosil bo'lgan emas. Toshlar birlashib tog' hosil qiladi, tog'dan cho'qqilar o'sib chiqadi. Siz tayin cho'qqilardan birisiz, men va menga o'xshashlar – toshlardir”⁷⁴ –deb Omon Matjon ijodiga juda baland baho beradi. Darhaqiqat, cho'qqilar tog'larning yelkasiga tayanib bosh ko'targani uchun ham qavat-qavat osmonlar bilan ko'rishadi. Cho'qqiga chiqishdan maqsad esa ona zamin qudratini chin dildan his qilish, olis osmon qatlaridan ko'zga nur, qalbga quvvat olmoqdir. Ijodkorning niyati yuksak cho'qqilardan tevarak-atrofga, olamga qaytadan nigoh tashlash, o'rganish, idrok etishdan iboratdir. Quyida ushbu xat mazmunini keltiramiz:

“Иним ОМОНЖОН!

Ассалому алайкум!

Экранда билим юрти ўқувчилари билан учрашувингизни кўрдим. Сизга ҳавасим келади ука. Илҳом ва эҳтиросингиз яна ҳам сарафроз бўлсин.

Тақдиримдан менинг ҳеч бир ўкинчим йўқ. Юнон шоираси Сапфо айтганки, “Ҳадеб юсакка, ўзингдан мартабалиларгагина қарайверма, қуйига, ўзингдан ночорларга ҳам боқ”. Шундай деб тасалли бераман-да ўзимга.

Тоғларнинг энг юсак жойлари – чўққилар. Чўққилар ўз-ўзидан ҳосил бўлган эмас. Тошлар бирлашиб тоғ ҳосил қилади, тоғдан чўққилар ўсиб чиқади. Сиз тайин чўққилардан бирисиз, мен ва менга ўхшашлар – тошлар. Бинобарин, менга ўхшаш адабиёт “болельшик”лари ҳам керак, шекилли.

Қўл ёзмаларим ҳақида бир оғиз хушхабар берсангиз. Ўтинаман.

Янги йилингиз қуллук бўлсин.

Қўлдош Мирза

Ўш шаҳри.”⁷⁵

Qo'ldosh Mirza Omon Matjonni yangi yil bayrami bilan tabriklab, O'sh shahridan ana shu mazmundagi xatni jo'natgan. U qirg'iz adabiyotining zabardast ijodkorlaridan biri bo'lib, uning “Zamon qo'ng'irog'i”, “Vafo shevasi”, “Xonalarda chiroqlar porlar” she'riy to'plamlari hamda “Boburmirezoning taylag'i”, “Zarrin zarralar”, “Qishlab qolgan

⁷³ Omon Matjon shaxsiy arxividan. Xatlar papkasi.

⁷⁴ Omon Matjon shaxsiy arxividan. Xatlar papkasi.

⁷⁵ Omon Matjon shaxsiy arxividan. Xatlar papkasi.

qaldirg'och", "Gavhar" kabi nasriy kitoblari chop etilgan. Qo'ldosh Mirzo Omon Matjon bilan tengdosh va zamondosh ijodkor sifatida do'stining iste'dodi va ijodini nihoyatda qadrlagan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.
2. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 98 б.
3. Сувон Мели. Сўзу сўз ("Адабиёт фалсафасига чизгилар") – Тошкент: Sharq, 2020. – 528 б.
4. Воҳидова Г. Қалбим ардоғи. Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Эркин Воҳидов рафиқаси наздида. – Тошкент: Mashhur-Press, 2020. – 176 б.
5. Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 95 б.
6. Қодирий Х. Отам ҳақида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 236 б.
7. Қодирий Х. Отам ҳақида. – Тошкент: Таълим-медиа, 2019. – 128 б.
8. Саидносирова З. Ойбегим менинг. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 320 б.